

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

NAVOIYNING USLUBIY MAHORATI: NOVATORLIK, BAYON VA TASVIR UYG‘UNLIGI

Qodirjon Ergashev

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti
yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori*

Alisher Navoiy asarlarining yuksak badiiyatini ta’minlagan asosiy omillardan biri mullifning uslubiy mahorati, uslubdagi novatorligidir. Biz Navoiy nasrini tahlil qilish asnosida bayon tarzi va tasvir bilan bog‘liq bo‘lgan, o‘sha davr nasri uchun yangi va kutilmagan usulni ham uchratdik. Bu boshqa shaxs tilidan yozish usulidir. Bu o‘rinda bir narsani aytib qo‘yishimiz lozim bo‘ladi: bu hodisani boshqa bir usul – voqealarning muallif tilidan emas, boshqa shaxs tomonidan, asar personaji yoki voqea ishtirokchisi tilidan bayon etilishi bilan chalkashtirmaslik lozim. Bular butunlay boshqa-boshqa hodisalardir. Biz hozir so‘z yuritmoqchi bo‘lgan usuldan Navoiy nasrida faqat bir marta “Munshaot” asarida foydalanilgan. Asardagi 101-maktubga “Mirzo tilidin” deb sarlavha qo‘yilgan va unda Mirzoning (Sulton Husayn Boyqaroning – Q.E.) kechinmalari, iztiroblari, o‘y-fikrlari muallif (Navoiy – Q.E.) qalami bilan birinchi shaxs (men) tilidan qog‘ozga tushirilgan [1.624-625]. Bunday usulda bitilgan maktub Navoiyga qadar yaratilgan “Munshaot”larning birontasida uchramaydi. Mazkur usul bilan bog‘liq yana bir qiziq holat shundan iboratki, tilga olingan bitikdan keyingi “Banda tilidin” deb sarlavha qo‘yilgan xat Navoiyning qalamidan chiqqan oldingi maktubga javob sifatida yozilgan va unda Mirzoning kechinmalari, iztiroblari, munosabati bilan Navoiyning bildirgan fikrlari, unga bergan tasallisi ifodalangan. Shubhasiz, bunday ajoyib o‘ziga xoslik ushbu bitiklarning bayon tarzi va tasvir usuliga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Ularining birinchisi, “Mirzo tilidin” deb sarlavha qo‘yilgan maktub Mirzo boshiga tushgan alamli voqea, mudhish motam munosabati bilan bitilgan. Binobarin, bundagi tasvir tuyg‘ular tasviri, alamli kechinmalar tasviridir. E’tirof etish lozimki, bu hislar, Mirzo qalbidagi alam va anduh xatda beqiyos bir mahorat bilan, o‘zining ta’sir kuchi va badiiyatining yuksakligi bilan ajralib turuvchi satrlarda ifoda etilgan va ushbu maktubni haqli ravishda insho san’atining nodir namunalardan biri deyish mumkin. Maktub o‘zining aziz farzandi, o‘n gulidan bir guli ham ochilmagan jigargo‘shasidan ayrilgan otaning faryodi, nidosi singari yangraydi. Albatta, yuqoridagi singari kulfatga duchor bo‘lgan insonning qanday ahvolga tushishini tasvvur qilish mumkin. Bunday vaziyatda, eng avvalo, alam tuyg‘usi birinchi o‘ringa chiqishi kuzatiladi. Buni tahlil etilayotgan xatda ham ko‘ramiz. Unga xos xususiyatlar, eng avvalo, uning katta qismida bayon tarzi va ohangining keskinligi, alamzadaligi shundan dalolat beradi.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Xatning boshlanish qismidan falakka, charxga murojaat mazmunidagi bayt va ruboiy o‘rin olgan:

*Ey falak, orom-u ruh-u munisi jonim qani?
Subhi ayshim mehri-yu sham’i shabistonim qani?
Ey charxi jafokor, ne sitamlar qilding,
Jonimni nishonai alamlar qilding,
Muhlik nafasim o‘tin alamlar qilding,
Uzrungni qo‘lay chu karamlar qilding. [1.624-625]*

She‘rdan so‘ng alamli, anduhli tuyg‘ular tasviri nasriy satrlarda davom ettiriladi. Endi xatning bayon tarzida alamli ohanglar bilan birga ta‘na va shikoyat ohanglari ham yangraydi. Bunda charxga ta‘na qilinadi, uning yetkazgan jafolari, zulmi bir-bir sanab o‘tiladi: “Bu g‘amfarsuda tanim tufrog‘in sovururg‘a oh yeli bas erdi, bir sarvni yiqquncha sar-sari hojat ermas erdi va bu xunoluda ko‘zum chirog‘in tiyra qilurg‘a qora baxtim savodi yetar erdi, bir quyoshni qora yerga kiyurmak kerakmas erdi. Jonimni olurung yetmasmu erdikim, jonimg‘a ajal tig‘in surarg‘a bedod ko‘rguzding, menga qilgan zulmni hech podshohga, yo‘qkim hech gadog‘a ravo ko‘rmading va menga urgan bedod tig‘in hech komgorg‘a, yo‘qkim, hech benavog‘a urmading”. Yuqoridagi ta‘nali, alamli fikrlar bayoni davomida bayon tempi o‘zgarib, ohang balandlashib boradi va quyidagi satrlarga kelganda yuqori darajaga ko‘tariladi: “Boshimg‘a kelgan turluk-turluk g‘amu alamg‘amu o‘kuray, jonimg‘a yuzlangan bir-biriga o‘xshamas motamg‘amu ko‘ksung‘a tosh uray! O‘z anduhlarimni bitsam qaysi birin nomada mastur etay va o‘z mehnatlarimg‘a yig‘lasam qaysi birin navhada mazkur etay?” [1.625] Bu o‘rinda bayon va tasvirdagi uyg‘unlik namoyon bo‘ladi, zero, Mirzo holatining, ruhiy iztiroblarining eng yorqin tasviri ham aynan mana shu satrlarda o‘z ifodasini topgan.

Boshiga tushgan og‘ir kulfatga, jafokor charx tomonidan yog‘dirilgan balolar, yetkazilgan zulmlarga qaramay, u Tangri karamidan, uning lutf-u inoyatidan umid uzmaydi: “Magar Haq subhonahu taolo o‘z mahzu lufu inoyati karamidin g‘oyatsiz dardima davo va nihoyatsiz marazu za‘fima shifo karomat qilg‘ay. Va hidoyat sham‘in andoq yorutqaykim, aning partavidin tiyra ko‘zum ochilg‘ay va o‘z jonbidin andoq jazbu oshnoliq yetkurgaykim, o‘zidin o‘zga hech nimaning shammai asari zamirimda qolmag‘ay va o‘z dardu shavqin ko‘nglumg‘a andoq mustavli qilg‘aykim, aning yodidin o‘zga hech nima ko‘nglum harimida yo‘l topmag‘ay:

*Tolib meni-yu o‘zini matlub etgay,
Rog‘ib meni-yu o‘zini marg‘ub etgay,
Oshiq meni-yu o‘zini ma‘shuq etgay,*

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Ishqini g‘olib, ko‘ngulni mag‘lub etgay”.

Mirzoning alamli kechinmalarini qog‘ozga tushirar ekan, muallif tasvirning haqqoniy va ishonchli bo‘lishi uchun uning bir she‘ridan ham foydalanadi. Xatda uchta she‘r (bir bayt va ikki ruboiy) bor. Ulardan biri, ya‘ni, “Ey charxi jafokor ne sitamlar qilding”, deb boshlanuvchi ruboiy Husayn Boyqaro qalamiga tegishli va uning devoni tarkibida mavjud.

Xat “Farzandi shahidi marhum Bobobek firoqida” degan so‘zlar bilan boshlanadi. Ma‘lumki, tarixiy manbalarda, jumladan, Xondamir va Bobur asarlarida Sulton Husayn Boyqaroning farzandlari haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Ammo ular orasida Bobobek ismli shahzoda yo‘q. Bu xususda mulohaza yuritish asnosida bizda bir necha taxminlar paydo bo‘ldi. Birinchisi, ma‘lumki, ayrim shahzodalarni ularning asl ismlaridan boshqa otlar bilan atash ham rasm bo‘lgan. Bunga misol tariqasida Ulug‘bek mirzoning ismi Muhammad Tarag‘ay ekanligini, Husayn Boyqaroning Muhammad Muhsin mirzo ismli o‘g‘lining manbalarda Kepak mirzo deb atalishini, Husayn Boyqaroning jiyani, Navoiy bilan juda yaqin bo‘lgan shahzoda Kichik mirzoning asl oti Muhammad Sulton mirzo ekanligini eslash kifoya. Bunday odat keyingi davrlarda ham mavjud bo‘lgan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruzni yoshlik paytida Bobojon to‘ra deb ataganlar. Shunga o‘xshab Bobobek ham shahzodalardan birining oila davrasidagi oti bo‘lishi mumkin. Xatdagi “farzandi shahidi marhum” so‘zlari bu o‘rinda shahid, ya‘ni, o‘ldirilgan inson haqida so‘z ketayotganini bildiradi. Husayn Boyqaroning bir nechta o‘g‘illari otasidan oldin olamni tark etgan, biroq ular o‘z ajallari bilan o‘lgan. Sulton Husayn mirzo avlodi orasida uning tiriklik vaqtida o‘ldirilgan yagona shahzoda Muhammad Mo‘min mirzo edi. Lekin mazkur shahzodaning boshqa bir ism bilan ham atalgani manbalarda qayd qilinmagan.

Ikkinchi taxmin: podshohlar, beklar, boshqa oliynasab kishilarning dargohlarida ularning o‘z oila a‘zolaridan boshqa ko‘plab kishilar yashaganlar. Ular orasida podshohning mehrini qozongan, unga behad yaqin bo‘lib qolgan insonlar ham bo‘lgan. Ana shunday shaxslarni ham iltifot yuzasidan farzand deb ataganlar. Ehtimol, Bobobek ham shularning biridir? Shuning uchun ham uning ismiga mirzo so‘zi qo‘shilmagandir? Chunki bu so‘z odatda temuriy shahzodalar ismiga qo‘shilgan.

Bu taxminlarning qaysi biri haqiqatga yaqinroq ekanligini kelajakdagi tadqiqotlar ko‘rsatadi.

Keyingi, “Banda tilidin” deb sarlavha qo‘yilgan maktub, asosan, yuqoridagi motam munosabati bilan Mirzoga tasalli berish maqsadini ko‘zda tutadi va uning bayon tarzi ham shu niyatga mos ravishda tanlangan. Unga bayonning bir xil sur‘atda,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

tempda borishi, ohangning bosiq, vazmin va mahzunligi xosdir. Maktub quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Yo Rab, ul davlat quyoshining zavoli bo‘lmasun,
Nuridin kam bo‘lmog‘ining ehtimoli bo‘lmasun.*

O‘zining Mirzoga tasalli berish haqidagi niyatini muallif hayotning o‘tkinchiligini, dunyoga kelgan har bir insonning o‘limga mahkumligini ta’kidlovchi, to‘lasicha ramziy ma’no tashuvchi gaplar, jumlar vositasida amalga oshiradi. Bu o‘rinda uning hayotga falsafiy munosabati o‘zini namoyon qiladi. “Munshaot”dagi Abdurahmon Jomiy vafoti munosabati bilan yozilgan xat ham ana shunday mazmun bilan sug‘orilgan hamda bayon tarzining, uslubining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu buyuk insonning vafoti Navoiy uchun katta yo‘qotish bo‘lganligi yaxshi ma’lum. Ushbu voqea tufayli chekkan iztiroblari, kechinmalari shoirning marsiyasida hamda “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida aks etgan. Maktub mazmuni ana shu asarlarda bilan bayon qilingan fikrlar bilan hamohangdir. Bilamizki, Navoiy Jomiyning dafn marosimida bosh bo‘lib turgan. Bu ikki inson o‘rtasidagi munosabatlardan xabardor bo‘lgan kishilar Jomiy vafoti Navoiy uchun nechog‘lik og‘ir musibat bo‘lganini his etganlar va aza sohibi sifatida undan ko‘ngil so‘rab, ta’ziya bildirganlar. Maktub ana shulardan biriga javob sifatida yozilgan. Uning uslubi oliymaqom shaxsga, hukmdorlardan birga yozilganini ko‘rsatadi. Undagi “inoyat nishoni”, “ul hazrat”, “shoh” singari iboralar va so‘zlar ham shundan dalolat beradi. Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin” da Jomiy vafotidan keyin atrofdagi viloyatlardan ham ko‘ngil so‘rash, ta’ziya bildirish uchun odamlar kelganini qayd qiladi va Badiuzzamon mirzoning Mozandarondan maxsus kishilar yuborib, ta’ziya bildirganini alohida ta’kidlaydi.[2.792] Fikrimizcha, xat shu munosabat bilan Badiuzzamonga yozilgan.

Maktub javobiya tarzida bitilgan va u adresat yuborgan xat va shu tufayli bildirilgan minnatdorlik hislarini ifoda qiluvchi duo, tilaklar bilan boshlanadi: “Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, inoyat nishonida hazrat haqoyiqpanoh, navarallohu marqadahu va jaal-jannata masvohu nur hodisa vafotlarin so‘rub erdilar, Haq subhonahu taolo ul hazrat zoti malaksifotin ahli olam uchun ko‘p yillar boqiy va poyanda tutsun va davlatlarining xurshidini jovid muziy va tobanda asrasun” [1.604]. Shundan so‘ng yuqorida ko‘rib o‘tilgan “Banda tilidin” deb sarlavha qo‘yilgan maktubdagi singari umrning o‘tkinchiligi, o‘limning haqligi borasidagi falsafiy mulohazalar bayon etiladi. Ana shu fikr-mulohazalarni tasdiqlash uchun keltirilgan oyati karimalar xatning bayon tarziga o‘ziga xos salobat, ayni paytda mahzunlik va fayz bag‘ishlaydi:

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“Muborak xotirg‘a ravshandurkim, “kulli man alayha fanin” karimasi manzumi bila har kimgaki baqo jomidin nash‘a yetishti, fano xumorini tortardin guziri yo‘qtur va “Kulli shay‘in xoliqi illa vajhahu” oyati mazmuni bila boqiyi mutlaq va hayyi barhaq vujudidin o‘zga jami’ ashyog‘a zahri halok jomin ichardin chora yo‘q. Va bu fano maqomi baqo dor us-salomi yo‘lida bir manzildurki, “Kun fid-dunya k-annaka g‘aribun av-obiri sabilin” andin xabar berur. Va ahlullohkim, bu yo‘ldin va bu manzildin ogohdurlar, o‘zlariga bu vodiy qat‘ini oson va dori fanoning boru yo‘qini yakson qilibdurlar. Alar bu mahalli havodisdin “Fi maq‘adi sidqin inda maliki muqtadir”g‘a rog‘ibroqdurlar”.

Hukmdorlar bilan yozishmalarda qo‘llanadigan uslub xatning mazmuni, nima munosabat bilan yozilganidan qat‘iy nazar, har qanday holatda ham, uning hukmdor shaxsi bilan bog‘lanishini, madh unsurlarining bo‘lishini, unda muallifning shoh tomonidan ko‘rsatilgan inoyat, lutf-u karamlarga munosabatining aks etishini taqozo qilar edi. Buni Navoiy o‘ziga xos mahorat bilan, xatning umumiy ruhi hamda mazmuni bilan bog‘lagan holda amalga oshirgan. Bu o‘rinda fikr ham, uning ifodasi ham benihoyat latif va go‘zal: Jomiy vafoti abadiy motam va alam, ammo “ul hazratdek so‘rg‘uchi bo‘lsa, ko‘ngul g‘amidin ne g‘am, xotir alamidin ne alam”. Maktub ushbu ruboiy bilan yakunlanadi:

*To jomi baqog‘a mast bo‘lg‘ay Jomiy,
Kavsar mayidin bo‘lg‘ay aning oshomi,
Shah jomi ichida bodai gulfomi,
Bo‘lsun to‘lavu hamisha andin komi.*

Maktublarning adresatga murojaat shaklida yozilishi tabiiy hol. “Munshaot”dagi maktublar ham shu shaklda bitilgan va bu ularning bayon tarziga xos xususiyatlardan biridir. Asardagi bitiklardan biri bu borada istisno hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Unda Navoiy maktublarining asosiy ko‘pchiligi uchun xos bo‘lgan, “Qulluq arzadosht ulkim...” deb boshlanuvchi kirish qismi mavjud emas. Maktubda adresatning ismi ham biron joyda tilga olinmaydi, shuningdek, unga ishora qiluvchi so‘zlar ham uchramaydi. Ikkichi shaxs (Siz, sen) ishtirokidagi ish-harakatlar bilan bog‘liq gaplar ham yo‘q. Xatda muallif inson haqida so‘z yuritadi, shu sababli “odamizod”, “kishi” so‘zlarini qo‘llaydi: “Odamizod o‘z ahvolig‘a mulohaza qilsa andinkim, adam dorulomoni xilvatxonasidin vujud shahristoni mehnatxonasig‘a kelibtur...” Yoki: “... munosib andoq ko‘runurkim, kishi zohir holatig‘a evrulg‘ay va botin voridotig‘a aylang‘ay”. Maktubning bayon tarziga murojaat shakli ham, murojaat ohangi ham xos emas va bu hol, shubhasiz, uning mazmuni hamda mavzusi bilan bog‘liq.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Maktubda muallifning insonning ma'naviy-ruhiy kamoloti va unga erishish yo'llari haqidagi mulohazalari bayon etilgan. Bu fikrlar va xulosalarga u o'zining orttirgan bilimi, shaxsiy tajribasi asosida kelgan va endi ularni boshqalarga yetkazishni, odamlar ongiga singdirishni hamda kishilarning ularga amal qilib yashashlarini istaydi. Maktubning shakli, bayon tarzi ana shu maqsadlarga bo'ysundirilgan. Uning bayon tarziga xos xususiyatlar: bayonning batafsilligi, unda uqtirish, ta'kidlash ohangining yetachiligi shunga xizmat qiladi. Buni quyidagi parcha misolida ko'rish mumkin: “Shariat bila ma'mur bo'lg'on umurda va tariqat bila mahkum bo'lg'on ahkomda o'zin mutaqaassir va mujrim bilib, nadomatu hijolat ashkin yuziga to'kub, ajzu niyoz yuzin mazallat tufrog'ig'a surtub, qodiri mutlaq va hokimi barhaq hazratida tazarru' va tazallum bila o'zin unutgay va xotiridag'i bashariyat mahol xayollarin va va zamiridagi anoniyat vabol nakollarin istig'for ashki selig'a oqizg'ay va boshidagi rayosat naxustlarin va ko'nglidagi xukumat shuyumatlarin istig'for ohi yelig'a uchurg'oy va dimog'idagi ma'no va nazohat qabohatlarin ajzu tazarru' sarsarig'a sovurg'ay. Va o'z kamoli chehrasig'a juz nuqson ko'zi bila boqmag'ay, balki o'z nobud zotig'a vujud tuhmatin toqmag'ay”. [1.627] Misol sifatida keltirilgan ushbu parchada “aql nuri va tab' hadiqi bila orasta va insof vufuri va idrok kasrati bila piyrosta” bo'lgan insonlarga ularning ma'naviy kamoloti uchun zarur va munosib ishlarning bir-bir sanab o'tilishida maktub bayon tarziga xos batafsillik, bir qator so'zlarning yonma-yon qo'llanilishida (muqassir va mujrim, nadomatu hijolat, ajzu niyoz, tazarru' va tazallum) bayon tarzidagi ta'kidlash, uqtirish ohanglari ko'rinadi. Muallif inson ruhiyatini yaxshi biladi. Uning insonning tabiatiga o'z aybi va kamchiliklarini ko'ra olmaslik xosligi va shu tufayli uning nafs o'z qusurlarini e'tirof etmasa, makr-hiyla yo'liga o'tsa, uni ilzom qilish uchun aql madadiga suyanishi lozimligi haqida yozganlari shundan dalolat beradi: “Va agar bu mulohaza qilurda andinkim, bashariyat ko'zi o'z ahvoli qusurin va hisoli futurin ko'rarg'a a'modur... nafs e'tirofidin ibo qilsa... aning ilzomig'a aql hakimi etagiga ilik urg'ay va o'z madadig'a kelturgay” [1.627].

Yuqorida ko'rib chiqilgan misollar Navoiy nasrining va uslubining o'ziga xosligini, muallifning bayon va tasvirdagi mahoratini yaqqol namoyon etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. Муншаот. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 9-жилд. Т., 2011. 624-625-бетлар.
2. Алишер Навоий .Хамсат ул-мутаҳаййирин. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 5-жилд. Т., 2011.792-бет.